

DINIY JURNALISTIKANING ILK KO'RINISHLARI

Zilola Abdivaxitova

*O'zbekiston Jurnalistika Va Ommaviy Axborot Kommunikatsiyalari Universiteti
Oliy jurnalistika kurslari 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada diniy jurnalistikaning ilk ko'rinishlari va diniy kontentlarning o'z davridagi ahamiyati yoritilgan. Maqola boshida protojurnalistika haqida tushuncha berilib, uning diniy jurnalistikaga bog'liq taraflari qisqa va aniq usulda tushuntirilgan. Undan tashqari, maqola davomida diniy jurnalistikaning yozma va og'zaki ko'rinishlariga to'xtalangan va Ilohiy kitoblarning diniy jurnalistikaning ilk asoslaridan ekanligi haqida fikrlar berilib, asoslangan. Sharqda voizlik san'ati va uning diniy jurnalistika bilan bog'liqligi alohida tahlil qilingan.*

Diniy jurnalistikaning ilk zamonaviy ko'rinishi XX asrda AQSH va O'rta Osiyoda bo'lgan o'zgarishlar orqali ochib berilgan bo'lib, bunda jadidchilik harakatlaridagi diniy jurnalistika mahsulotlariga misollar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Protojurnalistika, muqaddas kitoblar, O'rta Osiyo Uyg'onish davri, Qur'on, voizlar, Diniy harakat, jadidlar*

Аннотация: *В данной статье описаны первые проявления религиозной журналистики и значение религиозного контента в свое время. В начале статьи дается понимание протожурналистики и кратко и ясно объясняются ее аспекты, связанные с религиозной журналистикой. Кроме того, в статье акцентируется внимание на письменных и устных проявлениях религиозного журналиста, и указывается, что Божественные книги являются первыми основами религиозной журналистики. Отдельно анализируется искусство проповеди на Востоке и его связь с религиозной журналистикой.*

Через изменения, произошедшие в США и Центральной Азии в XX веке, была раскрыта первая современная форма религиозной журналистики, приведены примеры продуктов религиозной журналистики в джадидистских движениях.

Ключевые слова: *Протожурналистика, священные книги, Среднеазиатский Ренессанс, Коран, проповедники, Религиозное движение, Джадиды.*

Annotation: *This article describes the first manifestations of religious journalism and the importance of religious content in its time. At the beginning of the article, an understanding of proto-journalism is given, and its aspects related to religious journalism are explained in a short and clear way. In addition, the article focuses on the written and oral manifestations of a religious journalist, and points out that the Divine books are the first foundations of religious journalism. The art of preaching in the East and its connection with religious journalism is analyzed separately.*

The first modern form of religious journalism was revealed through the changes in the USA and Central Asia in the 20th century, and examples of the products of religious journalism in Jadidist movements were given.

Key words: *Proto-journalism, holy books, Central Asian Renaissance, Quran, preachers, Religious Movement, Jadids*

Diniy jurnalistikaning maqsadi ma'rifat ulashish insonlarni yaxshi amallarga chorlash va yomon amallardan qaytarish va dinga oid bo'lga yangilik va ma'lumotlarni yetkazish, almashish vazifasini ham bajardi. Shu nuqtayi nazardan aytamizki, diniy jurnalistikaning ilk ko'rinishlari jurnalistikaning dastlabki shakllariga borib taqaladi.

F. Mo'minov, A. Nurmatov muallifligidagi "Jahon jurnalistikasi tarixi" darsligida "Protojurnalistika" tushunchasiga ta'rif beriladi. "Proto" – bu qadimiy, oldingi, dastlabki degan ma'nolarni anglatadi. Protojurnalistika – "eng qadimiy jurnalistika", "ibtidoiy jurnalistika" degan ma'noni anglatadi. Matbuot shaklidagi jurnalistika paydo bo'lishidan oldin kishilik jamiyatida aynan ushbu ijtimoiy soha vakillari tomonidan bajariladigan va hozirgi jurnalistikaga o'xshab ketadigan faoliyat turlari barpo etilganidan keyin bu mehnat turi bugungi "jurnalistika" nomini oldi¹².

Ibtidoiy jamoadagi insonlar kamol topib borar ekan, ularning ilk diniy tushunchalari va tasavvurlari ham rivojlanib bordi. Insonlar orasida diniy qarashlar paydo bo'ldi va dinni bir-biriga yetkazish uchun turli nutq uslublaridan foydalana boshladi.

Ushbu darslikda yana shunday ta'kidlanadi:

Din insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga beqiyos katta hissa qo'shdi. Bu ikki ko'rsatkich bilan izohlanadi. Birinchidan.

din o'zini ibtidoiy jamiyatda va undan keyingi jamiyatlarda insonlarni birlashtiruvchi eng qulay va qudratli kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rsata oldi va paydo bo'lishidan to milodiy XV - XVI asrlargacha shunday vosita sifatida xizmat qildi. So'ngra xalqni birlashtiruvchi birinchi ijtimoiy; siyosiy va harbiy kuch sifatida dindan nisbatan xoli mavqeda shakllangan davlat apparati maydonga keldi. Ikkinchidan, din ommaviy kommunikatsiyalarning boshqa turlari — fan , ta'lim , siyosat, ma'naviyat va hokazo sohalarining vujudga kelishi hamda taraqqiy etishiga sababchi bo'ldi.

Shulardan anglashiladiki, diniy jurnalistika insoniyatning dastlabki rivojlanishi bilan birga kechgan. Ya'ni din insonlar orasida tarqala boshlagach, uni bir-biriga yetkazish, diniy amalga chaqirish, yaxshilik qilishga undash va yomon,ikdan qaytarish insonlarda kommunikatsiyaviylik va interaktivlikni kuchaytira boshladi, umumiy ma'noda esa bu holatlarda diniy jurnalistikaning ilk elementlari yuzaga chiqdi.

Bundan tashqari, ilohiy kitoblar ham e'tiborga molikdir. Ularda jurnalistikaning yozma va og'zaki ko'rinishlari namoyon bo'lgan. Muqaddas kitoblar, ilohiy kitoblar — muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar

Buddaviy dinida - Tripitaka

¹² F Mo'minov, A.Nurmatov va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Dars

lik. — T.: «Fan va texnologiya», 2008, 328 bet.

Hinduiy dinida - Vedalar va upanishadlar
Kristian dinida - Bibliya (Muqaddas kitoblar to'plami)
Yahudiy dinida - Tavrot

Islom dinida - Qur'on shunday kitoblardan hisoblanadi.

Jahon jurnalistikasi tarixi kitobida yana shunday deyiladi:

Vedalar – jamoaviy ijod bo'lib, uning biror bir muallifi alohida ko'rsatilmagan. Shuning uchun mazkur she'rlarni bemalol xalq asari deb hisoblash o'rinlidir. Shubhasiz aytish mumkinki, vedalar qadimiy hindistonliklar uchun diniy, falsafiy, jamoaviy, tarixiy, estetik, axloqiy va hokazo sohalardagi faol ijtimoiy kommunikatsiyalarning ham hosilasi, ham yangi yuksalishlar vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu kitoblar va undagi ezgulik ta'limotlarini har qaysi davr jamiyatiga yetkazib berish uchun kishidan alohida jurnalistik qobiliyatlar talab etilgan. Bu qobiliyatlar dastlab elchi yoki payg'ambarlarda, so'ngra xavoriy, yordamchi, sahoba va ergashuvchilarda namoyon bo'lgan.

O'rta Osiyo Uyg'onish davri (IX-XII) da dinga bo'lgan e'tibor, diniy jurnalistika rivoji uchun ham yo'l ochdi.

Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti, shuningdek, va'zxonlik, "Qur'on" ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar aytilgan.¹³

Xususan, voizlikning ahamiyati juda muhim bo'lib, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining asarlarida voizlar haqida ko'p marta ta'kidlagan. Masalan:

"Voizki, dastyorsuz o'lma suxonguzor,
Anga yorodu munga ayolg'uvchi hukmi bor.
Tengri so'zin ayolg'uvchi bo'lmay dey olmag'ay,
Bir soz bo'lsa ham keral ul qilg'ay ixtiyor".

Hazrat Alisher Navoiyning bu qit'asi R.rasulov va boshqalar tomonidan yozilgan "Notiqlik madaniyati va notiqlik san'ati" o'quv qo'llanmasida shunday izohlangan: Voiz Haq so'zini targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi Haq va Payg'ambar yo'lga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq - musofirni yo'ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi - uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir...¹⁴

Yuqoridagi qit'a va izohdan ham shuni anglash mumkinki, voizlar aynan dinni da'vat qilishgan va ma'rifat tarqatish yo'lida bardavom bo'lishgan. Insonlarni yaxshilikka chaqirib, yomonlikdan qaytarishgan va o'z navbatida yangilik va turli

¹³ N. Bekmirzayev. Notiqlik san'ati asoslari. O'quv qo'llanma. — T.: "Yangi nashr", 2008, 235 bet

¹⁴ R. Rasulov, Q. Mo'yidinov. Notiqlik madaniyati va Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. — T. 2015, 116 bet

ogohlantirishlarni ommaga taqdim etishgan. Shuningdek, ular albatta, go'zal va ta'sirli nutq egasi bo'lishlari kerak bo'lgan. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar, aynan, diniy jurnalistikada namoyon bo'ladi va shu jihatdan ham voizlar diniy jurnalistikaning O'rta Osiyodagi sezilarli yuksalgan ko'rinishini namoyon qilgan desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Albatta, diniy jurnalistikaning yuksalish davri turli yerlarda turli vaqt va sharoitda kechdi. XX asrda Amerika Qo'shma Shtatlari o'z jamiyati uchun yangi ko'rinishdagi diniy erkinlik va diniy jurnalistikani taqdim etdi. Bu haqida "Religious journalist's perception of religion. News and its auditory("Diniy jurnalistlarning dinni qabul qilish doirasi. Yangiliklar va auditoriya") deb nomlangan kitobda aytiladiki,

1949-yilda din mutaxassislarining yangi professional uyushmasi paydo bo'ldi. O'shandan beri mamlakatning aksariyat yirik gazetalarida diniy mutaxassislar bor edi. 1980-yillarda jamoatchilik e'tibori va jurnalistik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dinning jurnalistika bilan bog'liqligi ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muhim mavzudur. "Deen beat"(Diniy harakat) stipendiyasi asosan diniy yangiliklar miqdori va yoritiladigan mavzularni tavsiflovchi kontent tahliliga ko'ra berilgan edi. Misol uchun, bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, AQSh gazetalaridagi barcha yangiliklarning ko'pi bilan 2% din haqida. Din yangiliklari bo'yicha barcha keng ko'lamlı kontent tadqiqotlari bosma nashrlarga qaratilgan, shuning uchun ommaviy axborot vositalarida onlayn din yangiliklarining foizi baholanmagan. Din haqidagi barcha yangiliklarning nisbatan kichik foizidan qat'i nazar, din yangiliklarning asosiy mavzusi bo'lib qoldi. Pew Research Center(Pyu Tadqiqot Markazi) tomonidan olib boriladigan yillik kontent tadqiqotlari ko'pincha yangiliklarning asosiy mavzularidan biri sifatida din bo'lganini ta'kidlagan. Yil oxiridagi hikoyalar ham dinning ahamiyatini ko'rsatdi¹⁵

Shu tariqa din haqidagi yangiliklar, diniy kontentlar AQSH diniy jurnalistikasida sezilarli o'rin egallashni boshladi.

O'rta Osiyo mamlakatlariga nazar tashlasak, XIX asr boshlarida ham diniy jurnalistika namunalariga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, jadidchilik harakatlarining 1-to'liqinida bu soha faollikni namoyon etdi. Bu borada adib Xurshid Davron o'zining "Tanlangan asarlar"ida keltirilgan buyuk jadidlardan biri bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning bir nechta gazetalarga chiqargan maqolalarini misol qilib olsak bo'ladi.

... Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, masoili e'tiqodiya, farz, vojib, sunnat, mustahab, harom, makruh, namoz, ro'za, haj va zakotlarni ham dunyaviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan, "Tarixi Islom" kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlarning "ta'limi faloniy, qoshi qaro, qaro ko'zi, qaro yuzi, oh,

¹⁵ Judith M. Buddenbaum. Religion journalists' Perceptions of Religion News and Its Audience. Mass Communication and Society Division of the Association for Education in Journalism and Mass Communication. National convention. San Antonio, Texas, August 1-4, 1987

so'zi shirin", deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmush...

“Taraqiy” gazetasi, 1906 yil, 14 iyun

“ Ey qarindoshlar... Alloh taolo biz, musulmonlarni sharifi Islom ila boshqa millatlardan mukarram va musharraf qildi. Jumla kitoblarni afzali Qur’oni Karimni bizga yibordi, hamma anbiyoi sarvari payg’ambarimiz afandi hazratlarina bizni ummat qildi. Bas, biz na uchun Alloh amrini lozim tutmasmiz...

(“Xurshid” gazetasi, 1906 yil, 21 sentabr)¹⁶

Diniy jurnalistika har bir zamonda muhim hisoblangan, ammo uning turli shakllarda ko'rinishi mavjudligi sabab alohida soha sifatida XX asrgacha ko'rinmagan. Shunday bo'lsada kishilik jamiyati uchun uning ahamiyati doim muhim bo'lgan. Har bir zamonda ham u o'z ahamiyatini yo'qotmagan, zero, din inson hayotida doim eng oliy qadriyatlardan bo'lib keldi. Hatto, 20-asr respublikachilik va jumhuriyatchilik(Turkiyada), kommunistik(O'rta Osiyo, Boltiq bo'yi davlatlari va ba'zi g'arb hamda sharq davlatlarida) davrlarida ham jamiyat din, diniy erkinlik uchun doimo kurashib kelgan va yuqorida ta'kidlaganimiz Munavvar qori kabi jadidlar diniy jurnalistika sohasida ham ish yuritganlar. 21-asr yuqori darajadagi axborotlashuv jarayonida ham bu sohalarga ehtiyoj har kungidan ham muhim bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F Mo'minov, A.Nurmatov va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. — T.: «Fan va texnologiya», 2008, 328 bet.
2. N. Bekmirzayev. Notiqlik san'ati asoslari. O'quv qo'llanma. — T.: “Yangi nashr”, 2008, 235 bet.
3. R. Rasulov, Q. Mo'yidinov. Notiqlik madaniyati va Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. — T. 2015, 116 bet.
4. Judith M. Buddenbaum. Religion journalists' Perceptions of Religion News and Its Audience. Mass Communication and Society Division of the Association for Education in Journalism and Mass Communication. National convention. San Antonio, Texas, August 1-4, 1987.
5. www.kh-davron.uz

¹⁶ www.kh-davron.uz